

I.SANOAT

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 2 698 taga yetdi. Bu ko'rsatkich 2023- yil 1-aprel holatiga nisbatan 808 ta yoki 77,0 foizga kamaygan.

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatda 156 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ularning 12,8 foizi Karmana tumani, 13,5 foizi Xatirchi tumani, 16,0 foizi Navoiy shahri, 17,3 foizi Navbahor tumani, 4,5 foizi Zarafshon shahri hissalariga to'g'ri keldi.




2024- yil 1- aprel holatiga shahar va tumanlar kesimida
faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda

	<i>faoliyat yuritayotgan</i>	<i>shundan,</i>		<i>2024- yil yanvar- mart oylarida tashkil etilgan</i>
		<i>yirik korxonalar</i>	<i>kichik biznes</i>	
Jami	2 698	27	2 671	156
Navoiy sh.	616	13	603	25
Zarafshon sh.	204	1	203	7
G'ozg'on sh.	219	-	219	8
Konimex t.	66	1	65	14
Qiziltepa t.	256	2	254	12
Navbahor t.	193	3	190	27
Karmana t.	445	4	441	20
Nurota t.	210	1	209	11
Tomdi t.	77	1	76	7
Uchquduq t.	127	-	127	4
Xatirchi t.	285	1	284	21


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2024- yil 1- aprel holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2024- yil yanvar- mart)



***Sanoat** – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste’moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi.*

2024- yil yanvar- mart oylarida sanoat mahsuloti hajmi 28 620,1 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati) 108,4 foizni tashkil etdi.

Jumladan, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 4 128,5 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati) 118,7 foizni, qayta ishlash sanoati 22 188,7 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati) 107,3 foizni, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havonikonditsiyalash 2 288,9 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati) 101,6 foizni, suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish 14,0 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati) 74,7 foizni tashkil etdi.




**2024- yil yanvar- mart oylarida iqtisodiy faoliyat
turlari boʻyicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish**

	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati, % da)</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari boʻyicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	28 620,1	108,4
Togʻ - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	4 128,5	118,7
<i>ulardan:</i>		
Metall rudalarini qazib olish	4 079,5	124,1
Boshqa turdagi togʻ-kon sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish	49,0	43,4
Qayta ishlash sanoati	22 188,7	107,3
<i>undan:</i>		
Oziq - ovqat mahsulotlari, ichimliklar tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	595,9	100,1
Toʻqimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	843,1	103,3
Yogʻoch va poʻkak buyumlar, pohlol va toʻqish uchun materiallardan buyumlari, qogʻoz va qogʻoz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	33,3	95,5

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati, % da)</i>
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	4,2	85,1
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	151,5
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	1 708,8	108,5
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	0,8	60,7
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	424,3	75,0
Metallurgiya sanoati	17 359,9	109,3
Mashina va uskunalardan tashqari, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	719,1	98,4
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	35,3	172,1
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	129,5	88,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	207,2	24,8
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	114,9	62,5
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	4,1	13,9
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	8,1	18,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	2 288,9	101,6
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	14,0	74,7

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 22 188,7 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 77,5 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 18,7 foizga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatda - 7,3 foizga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda - 1,6 foizga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida - 25,3 foizga pasayishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 128,5 mlrd soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 14,4 % ga toʻgʻri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan – bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22 188,7 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 77,5 % ini tashkil etdi.



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 0,1 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 9,7 % (9,5 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 83,5 % (82,7 %) va quyi texnologiyalisi – 6,7 % (7,7 %)ni tashkil etdi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)


	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2024- yil yanvar- mart</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Yodgorliklar, pardoqlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar	<i>tn.</i>	31 750	142,1
Qayta ishlash sanoati			
Boshqa guruhlarga kiritilmagan pishloqlar	<i>tn.</i>	1,5	106,4
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolkalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar	<i>ming dona.</i>	883,0	125,4
Qo'lqoplar va mitenkalar (trikotajdan tashqari)	<i>tn.</i>	5,5	190,3
Argon	<i>ming.m³</i>	389,1	9,8 m.
Azot	<i>ming.m³</i>	2,5	128,5
Kislorod	<i>ming.m³</i>	162,9	5,5 m.
Uglerod dioksidi	<i>tn</i>	2 657,6	116,6
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar	<i>ming. tn.</i>	132,1	108,1
Natriy sianidlari va sianidoksidlari	<i>ming. tn.</i>	12,9	113,8
Suvsiz ammiak	<i>ming. tn.</i>	178,3	136,3
Superfosfatlar	<i>ming tn P₂O₅</i>	0,6	109,6
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar	<i>tn.</i>	2 315,2	122,3
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak	<i>tn.</i>	65 769,4	4,0 m.
Metalldan yig'ma binolar	<i>tn.</i>	92,1	3,0 m.
Fungitsidlar	<i>tn.</i>	5,9	112,9
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	<i>tn.</i>	21,5	92,7
Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar	<i>ming dona.</i>	69,5	192,9

Argon ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-mart oylarida)

Argon – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlatiladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.

Viloyatimizda 2024- yil yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 389,1 ming m³ argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,8 m. ga ko'paydi.




Uglerod dioksidi ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-mart oylarida)

Uglerod dioksidi – gazsimon uglerod dioksid suyuqligidan tashkil topgan (karbonat angidrid, karbon dioksid) bo'lib, ammiak chiqindi gazlar, shuningdek, boshqa yonishmahsulotlar (past harorat suyuqlik, yuqori bosim suyuqlik va gaz) asosida olinadi.

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 2,7 ming tonna uglerod dioksidi ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,6 % ni tashkil etgan.




Azot ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-mart oylarida)

Azot – rangsiz, hidsiz gaz bo‘lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida jami 2,5 ming m³ azot ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 128,5 % ni tashkil etdi.




Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-mart oylarida)

Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo'llanadi.


2024- yilning yanvar-mart oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 2 315,2 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,3 % ga ko'paygan.



Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 78,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 17 359,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,7 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 697,7 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,9 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 561,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,8 % ga ko'payib va ishlab chiqarish hajmi 261,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya- sini, tabiiy gazni, bug‘ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi.


Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 288,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,0 % ni) tashkil etgan.



Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig‘ish, qayta ishlash va yo‘qotish)ni o‘z ichiga oladi.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,0 mlrd.so‘mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to‘g‘ri keldi.





Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilishida mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 366 ta loyiha bo'yicha 1 099,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,6 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga, 188 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.








2024- yil yanvar- mart oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

	<i>Sanoat mahsuloti</i>		<i>Jami sanoatdagi kichik biznes ulushi, % da</i>
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati, % da)</i>	
Jami	28 620,1	108,4	6,3
Navoiy sh.	24 362,9	108,7	1,3
Zarafshon sh.	149,0	101,3	100,0
G'ozg'on sh.	25,1	112,8	100,0
Karmana t.	2 753,4	112,3	16,6
Konimex t.	174,0	103,8	22,3
Qiziltepa t.	319,9	102,4	99,2
Navbahor t.	239,3	104,7	44,1
Nurota t.	91,8	103,5	82,8
Tomdi t.	14,2	103,2	100,0
Uchquduq t.	102,9	106,5	100,0
Xatirchi t.	387,6	102,8	49,0

G'ozg'on shahrida (2023- yilning yanvar- mart oyiga nisbatan 112,8 %), Karmana tumani (112,3 %) hamda Navoiy shahrida (108,7 %) sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) viloyat ko'rsatkichidan (108,4 %) yuqoriligini qayd etishimiz mumkin.






2024- yil yanvar- mart oylari yakunlari bo'yicha hududlar kesimida aholi ion boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

	Sanoat mahsulotlari, ming so'm	
	2023	2024
Jami	19 963,8	26 559,1
Navoiy sh.	114 271,7	150 345,8
Zarafshon sh.	1 562,3	1 681,0
G'ozg'on sh.	1 801,3	2 710,2
Karmana t.	13 911,0	19 797,8
Konimex t.	3 943,6	4 652,9
Qiziltepa t.	2 899,9	1 973,9
Navbahor t.	1 810,3	1 977,4
Nurota t.	897,0	1 023,6
Tomdi t.	789,4	913,5
Uchquduq t.	2 265,3	2 613,9
Xatirchi t.	833,9	1 815,3

2024- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming so'm



2024- yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori hajmi Navoiy shahriga (150 345,8 ming soʻm), Karmana tumaniga (19 797,8 ming soʻm), Konimex tumaniga (4 652,9 ming soʻm), Gʻozgʻon shahriga (2 710,2 ming soʻm), Uchquduq tumaniga (2 613,9 ming soʻm) va Navbahor tumaniga (1 977,4 ming soʻm) toʻgʻri keldi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 172,9 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.



Joriy yilda qoʻshma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 4,1 foizni tashkil etdi.

	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish		shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda	
	mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi (oʻsish surʼati), % da	mlrd. soʻm	Ulushi, % da
Jami	28 620,1	108,4	1 172,9	4,1
Navoiy sh.	24 362,9	108,7	877,3	3,6
Zarafshon sh.	149,0	101,3	3,6	2,5
Gʻozgʻon sh.	25,1	112,8	0,6	2,3
Karmana t.	2 753,4	112,3	233,5	8,5
Konimex t.	174,0	103,8	7,1	4,1
Qiziltepa t.	319,9	102,4	13,1	4,1
Navbahor t.	239,3	104,7	18,3	7,7
Nurota t.	91,8	103,5	1,2	1,3
Tomdi t.	14,2	103,2	-	-
Uchquduq t.	102,9	106,5	0,2	0,2
Xatirchi t.	387,6	102,8	18,0	4,6

Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da


2023- yil yanvar- mart

2024- yil yanvar- mart



■ Viloyatning boshqa korxonalari
■ Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlari sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, % da



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesni hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1 804,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi hamda kichik korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 6,3 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm



2024- yil yanvar- mart oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Uchquduq tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), G'ozg'on shahri (100,0 %), Zarafshon shahri (100,0 %), Qiziltepa (99,2 %), Nurota (82,8 %), Xatirchi (49,0 %), Navbahor (44,1 %), Konimex (22,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kam ulush Navoiy shahriga (1,3 %) hamda Karmana tumaniga (16,6 %) to'g'ri keldi.

Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi - korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri - solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi - boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Mahalliyashtirish darajasi - ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi;

Mahsulot sotish hajmi - savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).